



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

JIZZAX VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2024-YIL YANVAR-OKTABR OYLARI (DASTLABKI MA'LUMOT)



Tel.: 72 221-51-13
www.jizzax.stat.uz



Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2024-yil 1-noyabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 2 448 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 673 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 27,5 % ni) Jizzax shahriga, 378 tasi (15,4 %) Sharof Rashidov tumaniga, 266 tasi (10,9 %) G'allaorol tumaniga, va 256 tasi (10,5 %) Zomin tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Shahar, tuman nomi	2024-yil 1-noyabr holatiga korxonalar soni (birlik)		
	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan	Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarda shahar, tumanlar ulushi, % da
Jami:	2448	865	100,0
Jizzax shahri	673	189	27,5
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy tumani	75	29	3,1
Baxmal tumani	140	88	5,7
G'allaorol tumani	266	105	10,9
Sharof Rashidov tumani	378	99	15,4
Do'stlik tumani	97	42	3,9
Zomin tumani	256	117	10,5
Zarbdor tumani	127	53	5,1
Zafarobod tumani	65	25	2,7
Mirzacho'l tumani	76	27	3,1
Paxtakor tumani	119	35	4,9
Forish tumani	130	42	5,3
Yangiobod tumani	46	14	1,9





Jizzax viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 20 126,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 106,8% ni tashkil etdi.




Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining besh yillik ko'rsatkichlari o'sish tartibida, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yildan yilga o'sayotganligini ko'rsatadi.




Aholi jon boshiga to'g'ri kelgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Jizzax viloyatida 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi 13 251,0 ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich aholi ehtiyojlari ishlab chiqarish mahsulotlariga nisbatan o'sib borayotganini ko'rsatadi.



Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xaridorgirligi va aholi talablariga mosligini baholash uchun ham biz sanoat mahsulotlarining aholi jon boshiga to'g'ri kelish ko'rsatkichlarini hisoblab borishimiz kerak.

2024-yilning yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri kelgan sanoat mahsulotlari ko'rsatkichlari shuni bildiradiki, o'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat mahsulotlariga nisbatan aholining ehtiyoji o'sganligi hamda aholi sonining ham o'sib borayotganligini bildiradi.






Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, **19 558,7** mlrd.so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi **97,2 %** ni, tashkil etdi.


Hajmi, mlrd. so'm



FHI, %da



Ulushi, %da



B

C

D

E

B

C

D

E

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

B seksiya

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **155,3 mlrd. soʻm**ni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,8 %** ini tashkil etdi.



Yanvar-oktabr

2022-y 151,6 mlrd. soʻm

2023-y 237,5 mlrd. soʻm

2024-y 155,3 mlrd. soʻm

FHI, %da

2022-y 35,8%

2023-y 147,7%

2024-y 58,7%

C seksiya

Ishlab chiqaradigan sanoat

2024-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **19 558,7 mlrd. soʻm**ni yoki jami sanoat mahsulotlarining **97,2 %** ini tashkil etdi.

Yanvar-oktabr

2022-y. 8 358,9 mlrd. soʻm

2023-y. 15 777,2 mlrd. soʻm


2024-y. 19 558,7 mlrd. soʻm

FHI, %da

2022-y. 110,5 %


2023-y. 108,5 %

2024-y 107,6%





Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)



2024-yilning yanvar-oktabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 15,6 ming tonna paxta tolasi (2023-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 93,9 % ni tashkil etgan), 10,6 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (79,2 % ni), 24,1 ming tonna paxta chigiti (94,6 % ni) hamda 12,2 ming tonna o'simlik yog'i (tozalangan) (2,6 marta ga o'sgan).




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-oktabr	2024-yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Yengil avtomobillar (KIA,Chery,Haval,Lada) - dona	21 973	25 327	3 354,0
Paxta tolasi - tonna	20 464,3	15 613,0	-4 851,3
Yumshoq bug'doy va spelta uni -tonna	13 387,9	10 601,8	-2 786,1
Paxta chigiti - tonna	31 327,3	24 085,2	-7 242,1

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida avtotransport vositalari, treyler, yarim tirkamalar ishlab chiqarish sohasining ulushi – 50,2 % (2023- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,9 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishining ulushi – 18,3 % (2023-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 114,8 %), Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi – 11,4 % (2023-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 98,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 11,1 % (2023- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 149,3 %)ni tashkil etdi.


O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2023-yilning yanvar-oktabr oylarida – 0,1 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 54,3 % (2023-yilning yanvar-oktabr oylarida – 54,9 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 12,9 % (2023-yilning yanvar-oktabr oylarida – 15,3 %) va quyi texnologiyalisi – 29,6 % (2023-yilning yanvar-oktabr oylarida – 26,5 %) ni tashkil etdi.



Metallurgiya sanoati



90,9 % 128,4 % 130,3 % 18,2 %



2021-yil 2022-yil 2023-yil 2024-yil


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida metallurgiya sanoati 39,9 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,2 % ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 18,2 % ni tashkil etgan.

2023-yilning yanvar-oktabr oylarida metallurgiya sanoati 125,7 mlrd.soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,8% ni etib, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 130,3 % ni tashkil etgan.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

135,0 % 91,2 % 120,4 % 95,0 %



2021-yil 2022-yil 2023-yil 2024-yil


2024-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 11,4 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 98,7 % ga oʻsgan va ishlab chiqarish hajmi 2301,3 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 12,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 124,6 % ni tashkil etgan.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

104,0 % 103,4 % 98,2 % 153,2



2021-yil 2022-yil 2023-yil 2024-yil


2024-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga koʻra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,9 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 153,2 % ga oʻsgan va ishlab chiqarish hajmi 2 187,8 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 6,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 98,2 % ni tashkil etgan.

Ichimliklar ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 0,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 15,8 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 41,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.


2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 0,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 116,1 % ga o'sgan.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-oktabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 117,4 % ga ko'paygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 3 075,1 mlrd.so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 96,6 % ni tashkil etgan.



Kiyim ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,9 %, fizik hajm indeksi 100,4 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 579,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.


2023-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 117,7 % ni tashkil etgan.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish



124,7 % 90,1 % 126,4 % 60,9 %



2021-yil 2022-yil 2023-yil 2024-yil


2024-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,9 % ni, fizik hajm indeksi 60,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 388,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 % ni fizik hajm indeksi esa 126,4 % ni tashkil etgan.



Mebel ishlab chiqarish

118,1 % 99,2 % 112,2 % 94,1 %



2021-yil 2022-yil 2023-yil 2024-yil


2024-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, mebel ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi 94,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 187,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni fizik hajm indeksi esa 112,2 % ni tashkil etgan.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

127,4 % 72,7 % 98,7 % 87,8 %



2021-yil 2022-yil 2023-yil 2024-yil

2024-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,5 % ni, fizik hajm indeksi 87,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 310,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,9 % ni fizik hajm indeksi esa 98,7 % ni tashkil etgan.




Elektr uskunalari ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoatda elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 3,5 % ni, fizik hajm indeksi 120,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 713,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,4 % ni fizik hajm indeksi esa 125,1 ni tashkil etgan.




Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi 104,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 148,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni fizik hajm indeksi esa 92,9 % ni tashkil etgan.




Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 45,5 %, fizik hajm indeksi 109,0 % ga o'sdi hamda ishlab chiqarish hajmi 9152,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 48,0 % ni fizik hajm indeksi esa 107,5 % ni tashkil etgan.



Elektr, gaz bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2024-yil yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 311,3 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,5 % ini) tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta‘minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 81,4 mlrd. so‘mga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-oktabr	2024- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Elektr energiyasini uzatish bo‘yicha xizmatlar, mln. so‘m	171 273,2	239 957,6	68 684,4
Gazsimon yonilg‘ini quvurlar orqali taqsimlash bo‘yicha xizmatlar, mln. so‘m	58 593,2	71 350,9	12 757,7

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 88,9 mlrd.so'mni (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 0,5 %ini) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2023- yil vanvar-oktabr	2024- yil vanvar-oktabr	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm,	53 821,0	70 053,2	16 232,2
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	12 745,7	31 073,9	18 328,2


O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 15,7 % ga pasayishi kuzatildi, shuningdek chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 2,0 m. ga oshganligi kuzatildi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 3 794,6 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 18,9 %ni tashkil etdi.


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da

2023-yil yanvar-oktabr



■ Xorijiy korxonalar
■ Boshqa korxonalar


2024-yil yanvar-oktabr



■ Xorijiy korxonalar
■ Boshqa korxonalar


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi (mlrd.so‘m)da

2023-yil yanvar-oktabr



■ Xorijiy korxonalar
■ Boshqa korxonalar

2024-yil yanvar-oktabr



■ Xorijiy korxonalar
■ Boshqa korxonalar

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5 704,1 mlrd.soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 28,3 %ni tashkil etdi. Yillar kesimida taqqoslaganda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi oʻsib borayotganligini kuzatish mumkin. Ushbu koʻrsatkich viloyatda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlariga aholining talabi oʻsib borayotganligini hamda eksport hajmi koʻpayotganligini bildiradi.

